

1. «% kunlik» muddatli omonati

Omonat shartlari:

Milliy So'm valyutasida:

- Omonat muddati: **25 oy, uzaytirishsiz;**
- Minimal boshlang'ich to'lov – **100 000 so'm;**
- **Omonat to'lovi quyidagi usullarda kiritilishi mumkin:**
 - "Kapitalbank" ATB ilovasiga biriktirilgan talab qilib olinguncha hisobvaraqdan yoki istalgan so'm (UZS) bank kartasi hisobvarag'idan onlayn shaklda;
 - oflayn shaklda "Kapitalbank" ATBda ochilgan talab qilib olinguncha hisob raqamidan yoki bank kartasi (Uzcard, HUMO, VISA UZS, MasterCard UZS) hisob raqamidan;
- **Foiz stavkasi:**
 - 14% [O'zRMB qayta moliyalash stavkasi + yillik 2%](#) Visa kartaga hisoblanadi;
 - 14% [O'zRMB qayta moliyalash stavkasi + yillik 2%](#) hisobraqamiga hisoblanadi;
- **Foizlarni to'lash har kuni omonat valyutasida:** "Kapitalbank" ATBda ochilgan talab qilib olinguncha hisobvarag'iga/"Kapitalbank" ATBda ochilgan bank kartasi hisobvarag'iga o'tkazish orqali amalga oshiriladi.
- Omonatni to'ldirishga ruxsat beriladi;
- Omonatni qisman yechib olishga ruxsat beriladi (Shu bilan birga, omonatdagi qoldiqning minimal miqdori 100 000 so'm bo'lishi kerak);
- Erta yopish – ruxsat etiladi, omonat muddatidan oldinroq yopilganida, to'lab berilgan foizlar qayta hisoblanmaydi.
- Omonatning asosiy summasi qo'yilgan valyutada talab qilib olgunga qadar hisob raqamiga/ mijoz ATB «Kapitalbank» Visa UZS bank kartasiga o'tqaziladi.

2. «% oylik» muddatli omonati

Omonat shartlari:

Milliy So'm valyutasida:

- Omonat muddati: **25 oy, uzaytirishsiz;**
- Minimal boshlang'ich to'lov – **100 000 so'm;**
- **Omonat to'lovi quyidagi usullarda kiritilishi mumkin:**
 - "Kapitalbank" ATB ilovasiga biriktirilgan talab qilib olinguncha hisobvaraqdan yoki istalgan so'm (UZS) bank kartasi hisobvarag'idan onlayn shaklda;
 - oflayn shaklda "Kapitalbank" ATBda ochilgan talab qilib olinguncha hisob raqamidan yoki bank kartasi (Uzcard, HUMO, VISA UZS, MasterCard UZS) hisob raqamidan;
- **Foiz stavkasi:**
 - 14% [O'zRMB qayta moliyalash stavkasi + yillik 2%](#) Visa kartaga hisoblanadi;
 - 14% [O'zRMB qayta moliyalash stavkasi + yillik 2%](#) hisobraqamiga hisoblanadi;
- **Foizlarni to'lash har oyda omonat valyutasida** "Kapitalbank" ATBda ochilgan talab qilib olinguncha hisobvarag'iga/"Kapitalbank" ATBda ochilgan bank kartasi hisobvarag'iga o'tkazish orqali amalga oshiriladi.
- **Omonatni to'ldirishga** ruxsat beriladi;
- **Omonatni qisman yechib olishga** ruxsat beriladi (Shu bilan birga, omonatdagi qoldiqning minimal miqdori 100 000 so'm bo'lishi kerak);
- **Erta yopish** – ruxsat etiladi, omonat muddatidan oldinroq yopilganida, to'lab berilgan foizlar qayta hisoblanmaydi.
- Omonatning asosiy summasi qo'yilgan valyutada talab qilib olgunga qadar hisob raqamiga/ mijoz ATB «Kapitalbank» Visa UZS bank kartasiga o'tqaziladi.

3. «Kapital Ziynat» muddatli omonati

Omonat shartlari:

Milliy So'm valyutasida:

- Omonat muddati: **25 oy**;
- Minimal boshlang'ich to'lov – **100 000 so'm**;
- **Omonat to'lovi quyidagi usullarda kiritilishi mumkin:**
 - "Kapitalbank" ATB ilovasiga biriktirilgan talab qilib olinguncha hisobvaraقدan yoki istalgan so'm (UZS) bank kartasi hisobvarag'idan onlayn shaklda;
 - oflayn shaklda "Kapitalbank" ATBda ochilgan talab qilib olinguncha hisob raqamidan yoki bank kartasi (Uzcard, HUMO, VISA UZS, MasterCard UZS) hisob raqamidan;
- **Foiz stavkasi – yillik 20%** (omonatda bir bank kunidan ortiq bo'lgan summaga hisoblanadi);
- **Foizlarni to'lash har oyda omonat valyutasida** "Kapitalbank" ATBda ochilgan talab qilib olinguncha hisobvarag'iga/"Kapitalbank" ATBda ochilgan bank kartasi hisobvarag'iga o'tkazish orqali amalga oshiriladi.
- **Omonatni to'ldirish** – dastlabki 6 oy davomida nazarda tutilgan;
- **Qisman yechib olish** – ruxsat etilmaydi;
- **Omonatni muddatidan oldin yopish** – ruxsat etiladi. Avval to'langan foizlar butun davr uchun yillik 14% stavkasi bo'yicha qayta hisob-kitob qilinadi: to'langan va hisoblangan foizlar o'rtasidagi farq omonatning asosiy summasidan ushlab qolinadi;
Agar omonat norezident tomonidan ochilgan bo'lsa, omonat bo'yicha O'zR SK 366-moddasi va 82-moddasiga muvofiq norezident jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushlab qolinadi.

4. Zor 6%» muddatli omonati

Omonat shartlari:

AQSH dollarida:

- Boshlang'ich to'lovning minimal summasi – **1000 AQSH dollari**;
- Omonat qo'yish muddati – **24 oy uzaytirilmaydi**;
- Foiz stavkasi – **yillik 6%**;
- Omonatni **onlayn** hamda **oflayn** shaklda qo'yish mumkin.
- Foizlar omonat valyutasida 24 oy uchun mijozning talab qilib olinguncha (20206) hisob raqamiga omonat ochilgan paytida to'lanadi.
- **Omonatni to'ldirishga** ruxsat etilmaydi;
- **Qisman yechib olishga** ruxsat etilmaydi;
- **Muddatidan oldin yopish quyidagi shartlar bilan ruxsat beriladi:**
Agar omonat muddatidan oldin to'liq yopilsa, hisoblangan foizlar yillik 2% miqdorida qayta hisoblab chiqiladi. Ortiqcha to'langan foizlar omonatning asosiy summasidan yechib olinadi. Foizlar to'liq turgan oylar uchun to'lanadi. To'liq bo'lmagan kalendar oyi uchun foizlar to'lanmaydi.

5. «Lyuks 4%» muddatli omonati

Omonat shartlari:

AQSH dollarida :

- **Dastlabki badalning eng kam summasi** – 500 AQSH dollari;
- **Omonat muddati** – 36 oy;
- Omonat Bankka **onlayn** yoki **oflayn** shakllarda kiritilishi mumkin;
- **Foiz stavkasi:** - yillik 4%;
- Foizlarni to'lash omonatchi pulni talab qilguniga qadar **har oy omonat kiritilgan valyutada** hisob raqamiga tushiriladi;;
- **Omonatni to'ldirish** – ko'zda tutilgan.
- **Omonatning bir qismini olish** – ko'zda tutilgan.
- **Omonatni yoki uning bir qismini muddatidan oldin yechib olish** – omonat ochilgan yoki omonatning so'nggi to'ldirilgan kunidan boshlab mos ravishda 15 kalendar kun o'tganidan keyin ruxsat etiladi;
- Omonatning asosiy summasini to'lash omonatchi talab qilguniga qadar **omonat valyutasida** hisobiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

6. «Yevro Onlayn 2%» muddatli omonati

Omonat shartlari:

Yevro:

- Boshlang'ich to'lovning minimal summasi – **100 yevro**;
- Omonat qo'yish muddati – **24 oy**;
- Omonat Bankka **onlayn** shaklda qo'yilishi mumkin;
- Foiz stavkasi – **yillik 2%**;
- Foizlarni to'lash omonatchi pulni talab qilguniga qadar **har oy omonat kiritilgan valyutada** hisob raqamiga tushiriladi;
- **Omonatni to'ldirish** – ko'zda tutilmagan.
- **Omonatning bir qismini yechib olish** – ko'zda tutilmagan.
- **Muddatidan oldin qaytarib olish** – ruxsat etiladi. Agar omonat muddatidan oldin talab qilinadigan bo'lsa, unda to'langan foiz stavkalari yillik 1% miqdorida qayta hisoblab chiqiladi. Bunda, to'langan va hisoblangan foizlar o'rtasidagi farq omonatga qo'yilgan summadan yechib olinadi;
- Omonatning asosiy summasini to'lash omonatchi talab qilguniga qadar **omonat valyutasida** hisobiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.